

QISHLOQ XO'JALIGIDA YOSH HAYVONLARNI O'SISHI VA UNI HISOBLASH

Sulaymonova X.I.

Toshkent kimyo xalqaro universiteti biotexnologiya magistri.

E-mail: xurshidasulaymonova0@gmail.com

Xudoyberganova G.S.

Qibray tumani kasb xunar koleji o'qituvchisi.

E-mail: xudoybergenova.guzal@gmail.com

Anotatsiya: Uy hayvonlarini oylar hisobida o'sishi va vazn yig'ishini o'lchashni turli usullari ishlatiladi. Chorva mollarining o'sishi va rivojlanishini nazorat qilib boriladi. Chorva mollarini vaqti-vaqti bilan tortish va o'lchashlar amalga oshiriladi. Hayvonlarning o'sishi va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganiladi.

Kalit so'zlar: chorvachilik, sut va go'sht maxsulotlari, samaradorlik.

Xozirgi kunda respublikamizda va butun dunyoda chorvachilikni rivojlantirish uchun juda keng imkoniyatlar yaratildi. Chorvachilikda sut va go'sht mahsulotlari uchun yildan yilga talab ortib bormoqda xalq ehtiyojidan kelib chiqib ishlab chiqarishni kengaytirishga prezidentimiz tomonidan tadbirkorlarni qo'llab quvatlash va yillik go'sht mahsulotlari zahirasini yanada mustahkam shakllantirish uchun zotdor qishloq xo'jalik hayvonlarini ko'paytrildi. Yillik go'sht mahsulotlarini shakllantirishda chorvachilikda go'sht mahsulotlari uchun mo'ljallangan hayvonlarni kunlik oylik va yillik o'sishi va qancha miqdorda go'sht etkazib berishi oldinda nazorat qilinadi. Qishloq xo'jalik hayvonlarining o'sishi deganda hayvonlarning miqdor ko'rsatkichlarining o'sishi ya'ni tirik vaznining oshishi tushuniladi. Qishloq xo'jalik hayvonlarining rivojlanish deyilganda hayvonlarning sifat ko'rsatkichlarining oshishi ya'ni muskul organ va to'qimalar-ning rivojlanishi tushuniladi. Chorva mollarining o'sishini nazorat qilish uchun ular tug'ilganidan keyin birinchi kuni, undan keyin esa quyidagi muddatlarda; qoramollar va otlar-1,2,3,4,5,6,7,8,9, 12,18,24 oyligida, qo'ylar-1,4,12,24 oyligida tarozida tortiladi. 24 oydan oshgan ya'ni ikki yoshdan oshgan chorva mollari yiliga 2 marta (ko'klamda, yozgi lager sharoitiga o'tkazish paytida va kuzda, molxonada boqishga o'tkazish oldidan) tortiladi.

Katta hayvonlarni sigir, buqa, otlarni tarozida tortish qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun hayvonlarning gavda o'lchamlarini o'lchab, tirik vaznini aniqlash mumkin. Hayvonlarning tirik vaznini gavda o'lchamlarini o'lchash yo'li bilan aniqlashni ikki usuli bor. Truxanov va Klyuver-Shtrauh usullari.

Truxanov usuli: katta yoshdagi hayvonning tirik vazni quyidagi formulaga

muvofiq

aniqlanadi:

$$T = \frac{\text{Gavdaning to'g'ri uzunligi} \cdot \text{ko'krak aylanasi}}{100} \cdot k$$

Bu yerda: k – to'g'rilash koeffitsienti bo'lib, sut va go'sht yo'nalishidagi zotlar uchun ishlatiladi. *Klyuver-Shtrauh usuli*: Bu usulda tananing qiya uzunligi va ko'krak orti ko'krak aylanasi lenta bilan o'lchanib, tirik vazni jadval yordamida aniqlanadi. Bu usullarda hayvonlarni tirik vazni aniqlanganda ozg'in mollar uchun 5-10% kamaytiriladi. O'rta semizlikdan yuqori mollar uchun 5-10% ko'paytiriladi. Urg'ochi mollarni tortishda va o'lchab ko'rishda ularning bo'g'ozlik muddatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Sog'in sugirlar tuqqandan keyingi ikkinchi va to'rtinchi oylarida, ertalabki sog'ishdan keyin boshqa molar ertalab ozuqa berishdan oldin tortilishi kerak. Organizm tirik vaznining muayyan vaqt (o'n kun, oy, yil) davomida o'sishi mutloq o'sish deb ataladi. Mutloq o'sish mollarni vaznini hisobga olish davrining oxiri va tug'ilgandagi tirik vazni o'rtasidagi farqni topish yo'li bilan quyidagi formulaga muvofiq aniqlanadi:

$$M = W_t - W_0 ; (\text{kg}) \quad (1)$$

W_t – o'lchanadigan paytdagi tirik vazni;

W_0 – tug'ilgan vaqtidagi tirik vazni.

O'rtacha kunlik o'sish quyidagi 2-fotmula orqali xisoblanadi.

$$K = \frac{W_t - W_0}{t} \quad (\text{gramm}) \quad (2)$$

t – tortish orasidagi o'tgan vaqt.

Nisbiy o'sish organizmning tirik vaznini yoki tana o'lchamlarini tug'ilgandagiga nisbatan qanchalik ortganligini ko'rsatadi va quyidagi formula orqali topiladi.

$$N = \frac{W_t - W_0}{\frac{W_1 + W_0}{2}} \cdot 100(\%) \quad (3)$$

100 – koeffitsent.

Nisbiy o'sishning hayvonlarning yoshi o'tishi bilan pasayishi hayvonlarning o'sishi me'yorda ekanligidan dalolat beradi. Nisbiy o'sishni tezlashishi ma'lum davrlarda o'sish muvozanatining to'xtab qolganligidan dalolat beradi.

Buzoqlarning tirik vazni to'g'risidagi ma'lumotlar nazorat guruhi tomonidan olingan natijalar va uy sharoitida boqilganlari bilan solishtirib tug'ilgandagi 3,6,9,12,15 va 18 oylikdagi mutloq, o'rtacha, kunlik va nisbiy o'sishni aniqlab solishtrilgan natijalar 1-jadvalda berilgan.

1-jadval

| № | Buzoqlar yoshi | Nazorat guruhi ananaviy texnologiya bo'yicha parvarishlangan | Uy sharoitida parvarish qilingan buzoqlarning tirik og'irligi (kg) |
|---|----------------|--|--|
|---|----------------|--|--|

| | | buzoqlarning tirik og'irligi (kg) | |
|---|-------------|-----------------------------------|-------|
| 1 | Tug'ilganda | 31 | 32,4 |
| 2 | 3-oyligida | 101,5 | 112,7 |
| 3 | 6-oyligida | 170,4 | 189,9 |
| 4 | 9-oyligida | 235,8 | 261,3 |
| 5 | 12-oyligida | 303,2 | 334,4 |
| 6 | 15-oyligida | 369,5 | 405,8 |
| 7 | 18-oyligida | 437,6 | 481,5 |

Tajriba sinovlarini nazoratchilar tomonidan va uy sharoitida boqilgan qo'ylarning olingan natijalari bilan solishtirilgan natijalar farqi 2-jadvalda keltilgan.

2-jadval

| № | Qo'yning yoshi | Nazorat guruhi tomonidan olingan natija qo'yni trik og'irligi (kg) | Uy sharoitida parvarish qilingan qo'yni trik og'irligi (kg) |
|---|----------------|--|---|
| 1 | Tug'ilganda | 3.4 | 3.6 |
| 2 | 4-oyligida | 25 | 28.3 |
| 3 | 12-oyligida | 34.9 | 37.4 |
| 4 | 2-yoshda | 46.5 | 48.9 |

Keying 3-jadvalda otlarning tirik vaznini uy sharoitida va nazoratchilar tomonidan olingan natijalari farqi berilgan.

3-jadval

| № | Otlarning yoshi | Nazorat guruhi tomonidan olingan natija tirik ot og'irligi (kg) | Uy sharoitida parvarish qilingan qo'yni trik ot og'irligi (kg) |
|----|-----------------|---|--|
| 1 | Tug'ilganda | 52 | 53 |
| 2 | 1-oyligida | 75 | 74 |
| 3 | 2-oyligida | 102 | 105 |
| 4 | 3-oyligida | 135 | 136 |
| 5 | 6-oyligida | 184 | 185 |
| 6 | 9-oyligida | 221 | 224 |
| 7 | 12-oyligida | 272 | 275 |
| 8 | 18-oyligida | 347 | 350.4 |
| 9 | 24-oyligida | 370 | 375 |
| 10 | 36-oyligida | 405 | 409.3 |

Xulosa qilib qishloq xo'jaligida chorva mollari va qo'y, otlarni mutloq o'sishi va o'rtacha kunlik o'sishini xamda nisbiy o'sishlarini yuqorida berilgan 1,2,3-formulalar yordamida tarozida tortish imkoni bo'lmagan chorva xayvonlarini hisoblab toppish imkoni bo'ladi. Eng asosiysi axolini sifatli sut va go'sht bilan taminlashni oylar va yillar xisobida aniq xisob kitoblar bilan amalga oshiriladi.

Adabiyotlar

1. Sattorov N.E., Botirov A.N., Ashurov N.A. "Chorvachilik asoslari" Toshkent-2020yil. 185bet
2. Ikromov T.H. "Chorvachilik asoslari" Toshkent-2001yil. 288 bet.
3. Maqsudov I., Jo'rayev J. Y., Amirov .Sh.Q. "Chorvachilik asoslari" Toshkent-2012yil. 361- bet.